XALQ DEPUTATLARI MARG'ILON SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

2022 - yil 30 - dekabr VI-63-138-11-168-K/22 Marg‘ilon shahar hokimligi

Marg‘ilon shahrining 2023 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasi, Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2022 yil 30 dekabrdagi “Farg‘ona viloyatining 2023 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2022 - yil 30 - dekabr VI-52-171-11-0-K/22 qaroriga muvofiq hamda Farg‘ona viloyati hokimligi moliya bosh boshqarmasining 2022 yil 30 dekabrdagi 01/01-38/2745-sonli xatini inobatga olib Xalq deputatlari Marg‘ilon shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Farg‘ona viloyat kengashining 2022 yil 30 dekabrdagi “Farg‘ona viloyatining 2023 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasiga asosan ishlab chiqilgan Halq deputatlari Farg‘ona viloyati kengashining 2022 yil 30 dekabrdagi “Farg‘ona viloyatining 2023 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2022 - yil 30 - dekabr VI-52-171-11-0-K/22 qaroriga muvofiq 2023 yilga Marg‘ilon shahri mahalliy byudjetiga viloyat

mahalliy byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfert 133 196 106.0-ming.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi hamda shahar mahalliy byudjeti daromadlari 158 298 193.0 ming.so‘m va xarajatlari esa 291 494 299.0 ming.so‘m miqdoridagi prognozlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qarorga asosan 2023 yilda:

a) Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar
2022 yil 1 iyul holatiga ko‘ra shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

b) Quyidagi soliq turlari shahar mahalliy budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;
- aylanmadan soliq;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;
- davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari;

v) Shahar mahalliy budjetlariga quyidagi ulushlarda:

Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushumlarning 50 foizi;

Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi qilishdagi aksiz solig‘idan tushumlarning 20 foizi;

yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘larining 50 foizi;

yuridik shaxslarning yer solig‘i va mol-mulkiga solinadigan soliq hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushgan tushumlarning 50 foizi;

davlat budjetiga undiriladigan jarimalarning 30 foizi;

Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘idan tushumlarning (yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) 50 foizi o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin;

4. Shahar mahalliy budjeti daromadlarining 2023 yil uchun prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Shahar mahalliy budjetidan 2023 yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Qonunning 8-moddasiga muvofiq zaxira jamg‘armalari mahalliy budjetlarning tasdiqlangan xarajatlarining kamida 1 foizi miqdorida shakllantirilishi belgilanganligidan kelib chiqib, 2023 yil uchun shahar mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2 744 298.0 ming.so‘m miqdorida tasdiqlansin.

Shahar hokimligi zaxira jamg‘armasi mablag‘larini shahar budjetida ko‘zda tutilmagan, kechiktirib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishini ta’minlasin.

7. Qarorga ko‘ra 2023 yil uchun shahar budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishsiz ya’ni 1586.0- mln.so‘m miqdorda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. Shahar mahalliy budjeti daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari hokimlikning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilayotgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan viloyat hokimligiga murojaat qilishi qonun bilan belgilanganligi inobatga olinsin.

9. Shahar hokimligi tashabbusi bilan qo‘shimcha amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar mahalliy budjetning ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manbalar hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

10. Shahar hokimligi hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarini yetarli darajada rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirilishini ta’minlash;

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilinadigan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarini moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar hokimliklar tomonidan majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirish;

mahalliy budjetning qo‘shimcha daromadlarini 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni, veb-saytlariga ularning natijalarini joylashtirsin.

11. Shahar hokimligi budjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga kiritib borilishini ta’minlasin.

12. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi hamda shahar hokimining birinchi o‘rinbosari O.Xomidov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.Ziyavitdinov**

Xalq deputatlari Marg‘ilon
shahar Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-63-138-11-168-K/22-son
qaroriga
1-ilova

Халқ депутатлари Марғилон шаҳар Кенгашининг
2022 йил «30»декабрдаги VI/63-2-сонли
қарорига 1-илова

Марғилон шаҳар маҳаллий бюджети даромадларининг 2023 йилдаги асосий прогноз кўрсаткичлари

минг сўмда

Т/Р	Даромад турлари	Жами
I.	**Рағбатлантирувчи (Стимулирующие) даромад**	**48 820 000**
	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	48 820 000
	Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи	
II.	**Бириктирилган даромадлар**	**69 784 900**
	Туман ва шаҳарларга бириктирилган	**43 671 000**
1	Ягона солиқ тўлови	20 594 000
2	Якка тартибдаги тадбиркорлар учун жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	6 680 000
3	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	7 830 000
4	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	8 305 000
5	Ижара тўловлари	262 000
	Вилоят ва туман (шаҳар)лар бюджетлари ўртасида тақсимланадиган даромадлар	**26 113 900**
1	Қурилиш материаллари бўйича ер қаридан фойдаланганлик учун солиқ	909 500
2	Якуний истеъмолчиларга бензин, дизель ёқилғиси ва газ реализация қилишдаги акциз солиғи	10 969 200
3	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	4 672 000
4	Юридик шахслардан ундириладиган ер солиғи	5 381 500
5	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	109 500
6	Жарималар	4 072 200
III.	**Тақсимланувчи даромадлар (формула бўйича)**	**39 693 293**
	Аҳоли сони (минг киши)	*244*
1	Алкоголга акциз солиғи (шу жумладан пиво)	16 057 971
2	Мобил алоқага акциз солиғи	6 887 936
3	Тамаки маҳсулотлари бўйича акциз солиғи	16 747 386

Жами даромадлар	**158 298 193**

Xalq deputatlari Marg‘ilon
shahar Kengashining
2022 yil 30 dekabrdagi
VI-63-138-11-168-K/22-son
qaroriga
2-ilova

Халқ депутатлари Марғилон шаҳар Кенгашининг
2022 йил «30» даги VI/63-2-сонли
қарорига 2-илова

Марғилон шаҳар маҳаллий бюджетидан 2023 йилги ҳудудий бюджет маблағларини тақсимловчиларга ажратиладиган харажатларнинг умумий чекланган миқдорлари

минг сўм

Т/р	Туманлар ва шаҳарлар бюджетларидан маблағ олувчи ҳудудий бюджет маблағлари тақсимловчилар номи	Сумма (минг сўм)
1	Мактабгача таълим бўлими	16 824 555,0
2	Халқ таълими бўлими	18 682 631,0
3	Тиббиёт бирлашмаси	129 308 715,0
4	Маданият бўлими	1 746 042,0
5	Спортни ривожлантириш бўлими	6 483 466,0
6	Бандлик ва меҳнат муносабатлари бўлими	734 889,0
7	Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бўлими	508 726,0
8	Ирригация бўлими	
9	Қишлоқ хўжалиги бўлими	
10	Туман фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгаши (Марказлашган ҳисобхона)	
11	Ободонлаштириш бошқармаси	16 816 280,0
12	Ички хўжалик автомобиль йўлларни таъмирлаш харажатлари	3 000 000,0
13	Молия бўлими	1 289 051,0
14	Ёшлар ишлари агентлиги ҳудуди бўлими	5 872 185,0
15	Кенгаш котибиятини сақлаш харажатлари	216 895,0
16	**Маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш бўлими**	**4 734 427,0**
	шундан	
	Ўзини-ўзи бошқариш органлари (махалла бўлими)	613 000,0
	Ўзини-ўзи бошқариш органлари (МФЙлар)	4 121 427,0
17	**Ҳокимият**	**85 276 437,0**
	шундан	
18	Ҳокимликни сақлаш харажатлари	2 335 959,0
19	Маҳаллабай ишлаш ва тадбиркорликни ривожлантириш маркази	5 816 548,0
20	Оила ва хотин-қизлар бўлими	3 761 962,0

21	Ижтимоий нафақалар	54 158 000,0
22	Ижтимоий кўникма марказлари ("дастлабки ижтимоий-моддий ёрдам пакети" ва марказни сақлаш харажатлари)	241 478,0
23	"Ташаббусли бюджет" жамғармасига ўтказиладиган маблағлар	14 320 192,0
24	Ҳоким ёрдамчилари тавсиялари асосида маҳалла инфратузилмасини яхшилаш учун ажратилган маблағлар	1 898 000,0
25	Захира жамғармаси	2 744 298,0
	Харажатлар жами	**291 494 299,0**